



O'zbekiston Respublikasi  
Kazirlar Mahkamasini  
huzuridagi O'zbek tili  
rivojlanish jang'armasi



O'zbekiston Respublikasi  
Raqamli Ishlar  
texnologiyalar  
vazirligi



O'zbekiston Respublikasi  
Biyotilim, fan va  
inovatsiyalar vazirligi



Sankt-Peterburg davlat  
universiteti



Uzbekiston  
universiteti



Toshkent davlat o'zbek tili  
va adabiyoti universiteti



Samarqand davlat  
universiteti



Toshkent axborot  
texnologiyalari universiteti  
Samarqand filiali

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
SAMARQAND FILIALI**

**“O‘ZBEK TILINING MILLIY KORPUSI:  
MUAMMOLAR VA VAZIFALAR”**

MAVZUSIDAGI XALQARO  
ILMIY-AMALIY ANJUMANI MA'RUZALAR TO'PLAMI  
2023 yil 25 mart

PROCEEDINGS

of the International Scientific and Practical Conference

**“THE NATIONAL CORPUS OF THE UZBEK LANGUAGE:  
PROBLEMS AND TASKS”**

March 25, 2023



43.	<i>Toirova D.F.</i> Realizmning diqqatga sazovor xususiyatlari	171
44.	<i>Usmanova H.M.</i> Вопросы повышения качества обучения русскому языку студентов технических специальностей	175
45.	<i>Berdiyeva H.A.</i> Tovush o‘zgarishlarining zamonaviy lingvistik modellari	181
46.	<i>Ergasheva Z.A.</i> Категориальные изменения сложных предлогов в английском языке	184
47.	<i>Musinoва Z.T.</i> Замысел происхождения эпосаи “человеческой комедии”	188
48.	<i>Urazova N.</i> Lingvistik terminlarning o‘tmishi va istiqboli	190
49.	<i>Rahmanova D.A.</i> O‘zbek va nemis tili dialektlari va jonli so‘zlashuv nutqi	193
50.	<i>Toirova G.I.</i> Қўшма сўзнинг лингвистик модулини яратиш	197
51.	<i>Murodova F.J., Fatcullayeva F.</i> O‘zbek tilida leksik sinonimiya talqini	201
52.	<i>Qambarov M.A.</i> G‘afur G‘ulom va Abdulla Qahhor asarlarida tarixiy so‘zlarning leksik va ma‘no xususiyatlari	202
53.	<i>Muxtarova Sh.M.</i> Ona tili ta‘limida fanlararo integratsiyaning ahamiyati	208
54.	<i>Abduqahhorova X.A., Muzaffarova D.N.</i> So‘z turkumlari doirasidagi antisemiyaning lisoniy va nutqiy voqelanishi	212
55.	<i>Rahmanova D.A.</i> Фразеология фанининг тилшуносликда аҳамияти	216
56.	<i>Muyiddinov Q., Haqberdiyev A.</i> O‘qituvchi nutq odobi	219
57.	<i>Muxtarova Sh., Tursunova Sh.T.</i> Ona tili darslarida integrativ yondashuvning ahamiyati	221
58.	<i>Muratbekova Sh.D.</i> Sodda gaplarning o‘xshashlik darajalari	224
59.	<i>Jumamuratova S.S.</i> Til ta‘limida lingvomadaniyatning shakllanishi va o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-didaktik asoslari	228
60.	<i>Do‘stamatova N.P.</i> Inson tashqi qiyofasini ifodalovchi birliklar	230
61.	<i>Numamatova B.A., Elmurodova S.A.</i> Turk yozuvchisi Aminah Shenlik o‘g‘lu asarlaridagi falsafiy qarashlar	234
62.	<i>Abduqahhorova X.A.</i> Ijtimoiy dialektlarda ekspressiv ma‘no xususiyatlari	237
63.	<i>Xudayarova S.Sh.</i> O‘zbek tilidagi so‘z birikmalarining lisoniy sintaktik qoliplarini modellashtirish masalasi	241

Menimcha, Shakleyinning fikrida biroz chalkashlik mavjud. Sababi, lingvokulturologiya tilshunoslik sohasi sifatida qabul qilmaslikning iloji yo‘q. Sababi, bu soha til va madaniyatning kesishmasida hosil bo‘lganligi uchun biz tilshunoslik sifatida tan olishimiz zarur. Faqatgina madaniyatga doir fan bo‘lganda edi, bizning ham fikrimiz Shakleyin kabi birdek bo‘lardi. Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda til va boshqa sohalar kesishmasida hosil bo‘layotgan bunday sohalar juda ko‘p. Agarda biz bularning barchasini tilshunoslik sohasida o‘rganmasak, tilshunoslik rivojlanmaydi.

Bizning tadqiqot mavzumiz, yuqoridagi tilshunoslar fikrlaridan kelib chiqib, o‘zbek tili ta‘limida o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyalarini qanday qilib shakllantirish lozimligi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tishdan iborat. Bunda biz zamonaviy o‘quvchida lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish uchun:

- o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyalarni shakllantirish bosqichlari til ta‘limiga raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish va integrativ, pragmatik, ijtimoiy-madaniy yondashuvlar asosida aniqlash;

- o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik ta‘minoti takomillash;

- o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyalarni shakllantiruvchi xorijiy tajribalar, metodlar o‘rganiladi va takomillash kabi vazifa va maqsadlarni belgilab olganmiz. Biz til orqali o‘zbek madaniyatiga doir so‘zlarni o‘quvchilar ongiga singdirish va tanish va tanish bo‘lmagan holatlarda buni qo‘llashni o‘rgatish usullarini tatbiq etamiz.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, olimlarning fikrlarini ko‘ryapmizki, lingvokulturologiya va uning o‘rganilishi yuzasidan olimlarning fikrlari turlicha. Ba‘zi qarashlar esa, bir-biriga qarama-qarshi ekanligini ham guvohi bo‘ldik. Shu g‘oyalarni umumlashtirgan holda o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyalarini shakllantirish chora-tadbirlarini ko‘rsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.Mahmudov “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2012. № 5. –B, 10.
2. Shoira Usmonova. Lingvokulturologiya. Toshkent-2019. 37-38-betlar.
3. Шахлейн В.М. Лингвокультурология. Традиции и инновация. Монография. – М.:Флинта, 2012. –С.253.

### INSON TASHQI QIYOFASINI IFODALOVCHI BIRLIKLAR UNITS REPRESENTING HUMAN APPEARANCE

*Do‘stnamatova Nilufar Pirmingulovna*

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,  
Toshkent, O‘zbekiston  
[ndustnamatova@gmail.com](mailto:ndustnamatova@gmail.com)

**Annotasiya.** Maqolada shaxsning tashqi ko‘rinishini ifodalovchi graduonimik birliklar, korpus lingvistikasi masalalariga doir tadqiqotlar tahlilga tortilgan. O‘zbek tilshunosligida graduonimiya hodisasi milliy korpusimizning lug‘aviy boyligini oshirishi, o‘zbek tilining lug‘at boyligi, emotsional-ekspressiv so‘zlar ko‘lamini kengaytirishi, tarjima borasidagi ba‘zi masalalarga aydinlik kiritishi kabi dolzarb muammolarga yechim ekanligi asoslab berilgan.

**Annotation.** The article draws on the analysis of studies on issues of graduated units, corpus linguistics, which represent the appearance of an individual. In Uzbek linguistics, the phenomenon of graduonymy is based on the fact that it is a solution to such pressing problems as increasing the vocabulary wealth of our national corps, expanding the vocabulary of the Uzbek

language, expanding the scope of emotional-expressive words, clarifying certain issues in translation.

**Kalit so‘zlar:** korpus lingvistikasi, graduonimiya, graduator, sinonim, antonim, oppozitsiya, gradosema, ottenka, paradigma.

**Keywords:** corpus linguistics, graduonymy, graduator, synonym, antonym, opposition, gradosema, ottenka, paradigm.

O‘tgan asr ikkinchi yarmidan boshlab ko‘plab tillarda urf bo‘lgani kabi o‘zbek tilshunosligida ham korpus lingvistikasi masalasi keng quloqch yoya boshladi. Zero, “Bugungi globalashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta‘minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”[1].

Korpus lingvistikasi fani o‘z oldiga tildagi barcha so‘z boyliklarini, yaratilgan asarlar, ilmiy-omnabop nashrlar, ommaviy matbuot hamda axborot vositalari materiallari, tarixiy ma‘lumotlar, nazm va nasr namunalari, shu kabi ko‘plab sohalmi o‘z ichiga qamrab olgan elektron baza tizimidir. *Linguistic corpus* sifatida ilk bor yuzaga kelgan ushbu atama o‘z zamirida tilshunoslikning bir bo‘limi[2] bo‘lgan filologik ob‘yekt hisoblanib, matn korpuslarini ishlab chiqish, yaratish, qo‘llash kabi vazifalarni bajaradi. Umumlashtirganda quyidagi ta‘rif shakllanadi: til yoki til hodisalarini tashqi mezonlar asosida ma‘lum matn parchalarining elektron shakllari to‘plami bo‘lib, lingvistik tadqiqotlar uchun manba sifatida xizmat qiladi.

Namunali til korpuslaridan biri bo‘lgan rus tili korpusiga 2003 yilda asos solingan bo‘lsa, u hozirgi paytda ham rivojlantirilib va takomillashtirilib borilmoqda, xususan: asosiy, gazetaga oid, sintaktik, og‘zaki, aktsentologik, multimediya, multipark, parallel, dialekt, o‘rgatuvchi, nasriy, rus klassikasi, tarixiy, panxronik, 2 dan 15 yoshgacha korpuslardan iborat bo‘lib, matnlar to‘plamida uchraydigan 1,5 milliarddan ortiq so‘zlardan[3] tashkil topgan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professor-o‘qituvchilari, doktorantlari va talabalari tomonidan o‘zbek tili korpusi ishlab chiqildi. Ushbu korpusda 2.000.000.000 ga yaqin o‘zbek tilidagi gaplar, 1.750.000 dan ortiq so‘z shakllar, 500.000 dan ortiq matnlar, asarlar mavjud bo‘lib, har bir so‘zning izohi, omonimlari, antonimlari, sinonimlari, paronimlari, darajalanish qatori, uslubiy xoslanganligi, milliy bo‘yoqdorligi va boshqa turdagi ma‘lumotlar aks ettirilgan. Ta‘limiy korpusda qidirish tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘zbek tilidagi har bir so‘zning korpus matnlaridagi o‘rni, valentligi, so‘zlarga mos bigrammalar va trigrammalar ro‘yxati keltirilgan[4].

Tadqiqotimiz mavzusi hisoblangan shaxsning tashqi ko‘rinishini ifodalovchi gradual munosabatlar, ular natijasida gradual oppozitsiyalarning sinonim-antonim guruhlarini shakllanishi va guruhlarining markazida gradual ma‘no (0) darajasini yaqqolroq namoyon etishda antonimlar yetakchilik qilishi, uning a‘zolari vazifasini esa bevosita antonim juftliklarining har bir sifat birliklari bajarishi kuzatiladi. Xususan, har bir sinonim gradual ma‘noga ega bo‘lib, uning semantikasi negizida gradosemalar yuzaga keladi va markazdan chetga qarab yo‘nalgan belgilar gradualligining ortib/kamayib borishi kuzatiladi.

Ma‘lumki, inson ko‘rish orqali shaxsning tashqi ko‘rinishini shakllantirishi bevosita shaxslararo muloqot va munosabatlarga ta‘sir ko‘rsatadi. Ma‘lum bir shaxs haqida ma‘lumotga ega bo‘lish yoki u haqida tasavvur hosil qilish shaxsning ba‘zi tashqi a‘zolariga ko‘ra ham amalga oshiriladi.

Shaxsning bo‘y-bastiga nisbatan *baland-past* darajalanish qatorlari orasidagi ushbu so‘zga ma‘nodosh hamda turli ottenkalarini kasb etuvchi *novcha naqnov, daroz, uzun, bo‘ychan, bo‘ydor, baland, baland emas, past, o‘rta bo‘yli, pakana* birliklarini yaxlit bir graduonimik jadvalga jamlab, ijobiy/salbiy ottenkalariga ko‘ra joylashtirib chiqdik. Bunda *novcha, naqnov, daroz, uzun* – bo‘yi baland, baland bo‘yli; *naqnov, daroz* salbiy ottenkani; *uzun* ma‘lum kontekst doirasida shu ma‘noda qo‘llanilishini aniqladik. *Bo‘ychan/bo‘ydor* hamda *baland/past emas* leksemalari bir xil semaga ega ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

Ijobiy/salbiy ottenkalariga ko‘ra ushbu *baland/past* paradigmalarini o‘zaro nosimmetrik, chunki jadvalda me‘yoriy daraja (0) markazining ikki tomoni miqdoriga ko‘ra ijobiy ottenkali leksemalar ustunlik qiladi. Gradosemalarga kelsak, ular *baland, uncha baland bo‘lmagan, nisbatan, me‘yoriy, o‘rtachadan past* kabi leksemalar hamda *-dor, -chan* qo‘shimchalari mavjudligi belgini ortiq/kam darajasini ifodalashga xizmat qilishining guvohi bo‘lamiz.

Ko‘rsatkichlar	Graduonimik birliklar	Graduonimik birliklar ma‘nosi[5]	Gradosema
+5	<i>daroz</i>	baland bo‘yli, novcha, bo‘ychan	baland
+4	<i>uzun</i>	baland, novcha	baland
+3	<i>novcha</i>	bo‘yi baland, daroz, uzun	baland
+2	<i>bo‘ychan/ bo‘ydor</i>	bo‘yi, qaddi baland, bo‘ydor, novcha/bo‘yi baland, bo‘ychan, daroz, novcha	baland, -dor, -chan
+1	<i>baland/ past emas</i>	qaddi, bo‘yi uzun, novcha/ qaddi, bo‘yi uncha baland bo‘lmagan	uncha baland bo‘lmagan
0	<i>o‘rta bo‘yli</i>	bo‘yi me‘yoriy darajada	me‘yoriy
-1	<i>past</i>	qaddi, bo‘yi uncha baland bo‘lmagan, balandligi, bo‘yi nisbatan qisqa	uncha baland bo‘lmagan, nisbatan
-2	<i>pakana/ pastak</i>	bo‘yi o‘rtachadan past, bo‘yi o‘smay qolgan, bo‘yi past/bo‘yi uncha baland bo‘lmagan	o‘rtachadan past/ uncha baland bo‘lmagan

1-jadval. *Baland-past* belgisini ifodalovchi darajalanish qatori.

Yuqorida bo‘yning baland/pastligini ifodalovchi leksemalar semantikasiga yaqin bo‘lgan, paradigmanning bir qismi hisoblangan *mimit/mitti/jimit* kabi leksemalar ham mavjud, biroq bularni faqatgina kichik yoshdagi bolalarga nisbatan qo‘llanilishi, kichkinagina, jimit, mitti, juda kichkina, kichkintoy, jajji *ma‘nolariga ega ekanligi* hamda *-gina, -toy* qo‘shimchalari va juda gradosemalari mavjudligini ham ta‘kidlab o‘tish joiz, masalan: *Arvanning mittigina barmoqchalari muzlab qoldi.*

Shu asnoda belgi anglatuvchi antonimlar (*baland-past, bo‘ychan-pakana*) va sinonimlar (*past, pakana, pastak*) bir graduonimik qatorni tavsiflovchi belgilar sirasiga kirishi ko‘rinib turibdi.

*Semizlik-ozg‘inlik* belgisini ifodalovchi qatorda yonma-yon turgan har bir so‘zlar juftligi bir-biriga nisbatan sinonimik munosabatlarni hosil qiladi va (0)ning ikki tomonida joylashgan *graduonimlar* bo‘lib, graduonimik jarayonni anglatadi. Bunga belgining turli darajadagi ifodalanishi: *ipiltirig, qiltirig, ozg‘in, oriq, o‘rtacha, to‘la, semiz, beso‘naqay, beo‘xshov* leksemalari misolida k‘urish mumkin, ular, asosan semizning aksi paradigmasi atrofigida birlashadi, ŷzaro o‘ppozitsiya hosil qiladi hamda markazning ma‘lum iŷnaliyida belgining ortiq/kamayib borishini ifodalaydi, masalan: *o‘rtacha, to‘la, semiz, beso‘naqay, beo‘xshov.*

*Oriq* leksemasi odam, jonivor va boshqa narsalarga nisbatan ham qo‘llanilsa, *ozg‘in* asosan odamga nisbatan, *dirdov* asosan hayvonlarga nisbatan qo‘llaniladi.

*Qiltirig, dirdov, ipiltirig, ramaqijon* so‘zlarida belgi darajasi kuchli. *Semizlik-ozg‘inlik* belgisini ifodalovchi quyidagi darajalanishning o‘ziga xos paradigmasini keltiramiz:

Ko‘rsatkichlar	Graduonimik birliklar	Graduonimik birliklar ma‘nosi	Gradosema
+4	<i>ramaqijon/ramaqijon/oriq-tirig</i>	nihoyat darajada ozgan, holdan toygan, eti borib suyakka taqalgan/ juda ham oriq	nihoyat darajada, juda ham
+3	<i>qiltirig/ ipiltirig</i>	juda oriq/ nimjon	juda

+2	<i>ozg'in</i>	eti qochgan, etdan tushgan, oriq	
+1	<i>orig/dirdov</i>	badaniga et bitmagan/ozg'in, qirchang'i	
0	<i>o'rtacha</i>	o'rta darajaga ega, yuqori (ortiq) ham, past ham emas	o'rta daraja
-1	<i>to'la</i>	jussasi yoki biror a'zosi bo'liq, etli, semiz	bo'liq
-2	<i>semiz</i>	etli, to'ladan kelgan, to'la	
-3	<i>beso'naqay</i>	ko'rinishi me'yordan tashqari katta	me'yordan tashqari
-4	<i>beo'xshov</i>	haddan tashqari ko'rimsiz, gavdasi, tashqi bichimi kelishmagan	haddan tashqari

2-jadval. Semizlik-ozg'inlik belgisini ifodalovchi darajalanish qatori.

Insonga nafaqat bo'y-basti, semiz-ozg'inligiga ko'ra, balki umumiy ko'rinishiga beriladigan baho ham muhim ahamiyat kasb etadi: *xushqomat, xushqad, xushbichim, ketvorgan, tamtam, bejirim, kelishgan* kabi, masalan: *Ulardan biri [Aliyev] barvasta qomat, quyuq qora qoshli, xushbichim chehrali yigit edi. H.Shayxov. Rene jumbog'i.*

Shuni ta'kidlash kerakki, *xush-* oldqo'shimchasi yordamida yasalgan so'zlar salmog'i ustunligi zahirida ijobiy ma'no yotadi, zero, *xush-* forschadan yaxshi, ajoyib, yoqimli, dilkash, qurvonq, qurvonchli ma'nolarini anglatadi. O'TILda ushbu oldqo'shimcha yordamida yasalgan ijobiy ma'nodagi so'zlar 66 tani tashkil etsa, salbiy o'ttenkadagilar soni – 6 ta ekanligini ta'kidlash lozim.

Quyida keltirilgan graduonimik jadvalga asosan *chiroyli* me'yoriy hamda dominant leksemasining paradigmaları ortib borish tartibida joylashtirilgan, ularda belgining kuchli darajasi kuzatiladi:

Ko'rsatki chlar	Graduonimik birliklar	Graduonimik birliklar ma'nosi	Gradosema
+6	<i>xushqomat/xushqad</i>	qaddi-qomati kelishgan, xushbichim	
+5	<i>xushbichim</i>	bo'yi-basti kelishgan, qaddi-qomati chiroyli	
+4	<i>ketvorgan</i>	har tomonlama kelishgan, juda chiroyli	har tomonlama, juda
+3	<i>tamtam</i>	qaddi-qomati kelishgan, zebo	
+2	<i>bejirim</i>	tuzilishi, bichimi ixcham, chiroyli, xushbichim	
+1	<i>kelishgan</i>	qaddi-qomati chiroyli, xushbichim	
0	<i>chiroyli</i>	ko'rinishi, tashqi qiyofasi ko'zga yoqimli ko'rinadigan	

3-jadval. Chiroyli belgisini ifodalovchi darajalanish qatori.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz lozimki, tadqiqot jarayonida o'zbek tilidagi graduonimik munosabatiga kirishuvchi so'zlar tematik guruhlarning soni 2 so'zdan to 9 so'zga, 3 so'zdan iborat qatorlarda ko'pincha "o'rta" so'zining mavjudligi, ijobiylik va salbiylik indikatorlariga ko'ra farqlanishda ularning soni simmetrik yoki nosimmetrik bo'lishi hamda gradosema daraja va o'lchovning umumiy semasi va u o'zgaruvchan xususiyatga ega ekanligi, ierarxik munosabatga qaraganda graduonimiya hodisasining ko'lam juda kengligi [6] kuzatilgan.

Guvohi bo'lganimizdek, o'zbek tilshunosligida graduonimiya hodisasini o'rganish borasida bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda, samarali ilmiy izlanishlar natijasida mukammal darajalanish qatorlari ishlab chiqilishi, ularning milliy korpusimizda aks ettirilishi millatimiz faxri bo'lgan ona tilimizning mavqeiini oshirish, jahonga tanitish, bebaho durdonalarimizning asl ma'nosini yo'qotmagan holda tarjima qilinishi orqali matnlar ta'sirchanligi, jozibasini saqlanib

qolishiga asos bo‘lib xizmat qilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeiini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni. // Xalq so‘zi, 2019, 22 oktyabr. №218(7448)
  2. [https://en.wikipedia.org/wiki/Corpus\\_linguistics](https://en.wikipedia.org/wiki/Corpus_linguistics)
  3. <https://ruscorpora.ru/page/corpora-structure/>
  4. <http://uzschoolcorpara.uz/>
  5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006-2008.
- Dustmatmatova N.P. Gradonymy as an Object of Study in Uzbek Linguistics. // Central asian journal of literature, philosophy and culture. 2022 №11, (eISSN: 2660-6828) 73-77 b.

**TURK YOZUVCHISI AMINA SHENLIKO‘G‘LU ASARLARIDAGI FALSAFIY  
QARASHLAR  
PHILOSOPHICAL VIEWS IN THE WORKS OF THE TURKISH WRITER AMINA  
SHENLIKOGLU**

*Nurmamatova Buoysha Abdurashid qizi, Elmurodova Surayyo Abdijalilovna*  
Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand, O‘zbekiston  
[elmurodovasurayyo6@gmail.com](mailto:elmurodovasurayyo6@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola turk yozuvchisi hamda tadqiqotchisi Amina Shenliko‘g‘lu va uning asarlarida ilgari surilgan ijtimoiy-ma‘naviy muammolar hamda ularning yechimiga qaratilgan adibning g‘oyaviy-falsafiy qarashlariga bag‘ishlanadi.

**Abstract.** This article is dedicated to the Turkish writer and researcher Amina Shenlikoğlu and the social and spiritual problems presented in her works and the writer’s ideological and philosophical views aimed at their solution.

**Kalit so‘zlar:** Fidokorlik, vatanga muhabbat, ishq, mehribon ona, nomus, insoniylik, johillik, soflik, adolat va adolatsizlik, zulm, mehr, do‘stlik, qadr-qiyamat va asarlardagi falsafiy jumlar.

**Keywords:** Sacrifice, love for the country, love, loving mother, honor, humanity, ignorance, purity, justice and injustice, oppression, kindness, friendship, dignity and philosophical sentences in works.

Ulkan istedod sohibasi Amina Shenliko‘g‘lu ko‘p millatli yoshlarning qalbidan joy olib ulgurgan. U nafaqat yozuvchi, balki turk tadqiqotchisi ham hisoblanadi. Uning asarlari yolg‘iz Turkiyada emas, balki dunyoning turli hil joylariga, eng chekka qishloqlarigacha yetib borgan. Jumladan, yozuvchining har bir asari o‘z muhlis va muhlisalariga ega. Yozuvchi asarlarini haqqoniy va falsafiy tushunchalari orqali ifodalab, hozirgi vaqtdagi juda ham dolzarb mavzularga bag‘ishlaydi.

Amina Shenliko‘g‘luning ko‘p asarlari turli hil tillarga jumladan, o‘zbek tiliga ham tarjima qilingan. Bular “Imomning maneken qizi”, “Dor ostidagi odam”, “Vijdon azobi”, “Iskanja”, “Johiliston kelini”, “Lo‘li”, “Maryam”, “Ehromlar qizi Laylo”, “Muslima ayol Yevropada”, “Yolvoraman hiyonat qilma”, “Nasroniy Atirguli”, “Ayollarni ayollar ham ezadi”, “Minboshining qizi”, “500 yildan so‘ng”.

Bu kitoblardan faqatgina “500 yildan so‘ng” asari fantastik hayolotlar orqali yozilgan va boshqa asarlari hayotiy voqealarga asoslanib yozilgan hisoblanadi.